XALQ DEPUTATLARI ANGREN SHAHAR KENGASHINING
Q A R O R I

2023 - yil 24 - noyabr VI-71-111-10-148-K/23 Angren shahar hokimligi

Angren shahridagi geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining 2011-yil 12-oktabrdagi “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 16-oktabrdagi “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq geografik obyektlarning nomlari sohasidagi ishlarni tartibga solish chora-tadbirlari haqida”gi 295-sonli qarori ijrosini ta’minlash, shuningdek, geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash sohasidagi davlat siyosatini yanada takomillashtirish hamda samarali amalga oshirish maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-moddasiga asosan, Xalq deputatlari Angren shahar Kengashi,

Q A R O R Q I L A D I:

1. Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta’minlash masalalari bo‘yicha shahar hokimining maslahatchisi N.Nazarovaning axboroti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha Toshkent viloyati komissiyasining 2023-yil 7-oktabrdagi 1/12-4-4724-sonli yig‘ilish bayoni hamda O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi Ekspert komissiyasining 2023-yil 19-sentabrdagi 1-14/170-sonli xulosasi asosida Angren shahridagi “Namuna” mahalla fuqarolar yig‘ini hududidagi nomsiz ko‘chaga Namuna nomini berish hamda “Angren 25-yilligi” istirohat bog‘ining nomini Alisher Navoiy nomidagi istirohat bog‘I nomi bilan qayta nomlash taklifi ma’qullanganligi inobatga olinsin va geografik obyektlarning nomlari ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Shahar Statistika bo‘limi (Sh.Abdukarimov), Kadastr Agentligi Toshkent viloyati boshqarmasi Angren shahar bo‘limi (Sh.Boymuratov), Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi (E.Ubaydullayev) hamda tegishli mutasaddi davlat organlari rahbarlari

amaldagi tartibda nom berilgan ko‘cha hamda qayta nomlangan Istirohat bog‘ining nomini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va elektron bazasini shakllantirish, ish yuritish hujjatlariga o‘zgartirish kiritish bilan bog‘liq barcha tadbirlarni amalga oshirsin.

4. Angren shahar “Namuna” mahalla fuqarolar yig‘ini raisi (M.Mamajonov), shahar Obodonlashtirish boshqarmasi bilan hamkorlikda nom berilgan ko‘chaga ko‘cha nomi qayd etilgan ko‘rsatgichlar o‘rnatish vazifasi topshirilsin.

5. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari shahar Kengashining Ta’lim, sog‘liqni saqlash, madaniyat, sport va ijtimoiy himoya masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasiga, shuningdek, qaror ijrosini ta’minlash Angren shahar hokimligi huzuridagi Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha shahar komissiyasi zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi **A.A.Rayimov**

Xalq deputatlari Angren shahar
Kengashining
2023-yil 24-noyabrdagi
VI-71-111-10-148-K/23-son qaroriga
1-ilova

Angren shahar hokimligi huzuridagi Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha shahar komissiyasining nomsiz ko‘chaga nom berish hamda geografik obyektning nomini qayta nomlash bo‘yicha taklifi

T/r	**Geografik obyektning turi**	**Joylashgan o‘rni**	**Geografik obyektning amaldagi nomi**	**Shahar komissiya tomonidan berilgan taklif**	**Nomi muvofiq deb topildi**
1	**2**	**3**	**4**	**5**	**6**
1	Ko‘cha	“Namuna” MFY	Nomsiz ko‘cha	1. Namuna 2. Yangilanish	**Namuna** ko‘chasi
2	Istirohat bog‘i	“Taraqqiyot” MFY	Angren 25 yilligi	1.Alisher Navoiy 2. Tinchlik bog‘i	**Alisher Navoiy** nomidagi istirohat bog‘i